



MUSTAFO CHO‘QAY VA TURKISTON

Raxmatov Murod G‘aybullayevich

Navoiy davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

raxmatov.80@bk.ru

+99890 618-36-26

Annotatsiya: Mazkur maqolada qardosh qozoq xalqining farzandi Mustafo Cho‘qay hayoti, siyosiy faoliyati, Turkiston mustaqilligining bayroqdori sifatida qilgan harakatlari ilmiy asoslar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, дума, jamiyat, muhojir, matbuot, firqa, fenomen, istiqlol, xotira, hay‘at, qurultoy, modda, federativ.

Аннотация: В статье на научных основах рассматриваются жизнь, политическая деятельность и поступки Мустафы Чокая, сына братского казахского народа, как знаменосца независимости Туркестана.

Ключевые слова: Туркестан, дума, общество, эмигрант, пресса, фракция, явление, независимость, память, правление, съезд, статья, федерация.

Abstract: This article discusses the life, political activities, and actions of Mustafa Chokai, a son of the fraternal Kazakh people, as the standard-bearer of Turkestan's independence, based on scientific foundations.

Key words: Turkestan, дума, society, emigrant, press, faction, phenomenon, independence, memory, government, congress, article, federation.

KIRISH.

Taniqli davlat va siyosat arbobi, mashhur publitsist va notiq, qardosh qozoq xalqining azamat o‘g‘loni Mustafo Cho‘qay (1890 – 1941) o‘zidan boy siyosiy va ilmiy meros qoldirdi. Buyuk siyosatchi Mustafo Cho‘qay qisqa, biroq yorqin kechgan 52 yillik umrida nafaqat siyosiy faoliyat bilan shug‘ullandi, balki Turkistonning yangi tarixidagi juda ko‘p muammolarni xolisona yoritgan ko‘plab maqolalar, xabarlar va ilmiy asarlar ham yozib qoldirdi. Shuningdek, Mustafo Cho‘qay xorijda ko‘p yillar mobaynida faoliyat ko‘rsatgan muhojirlarning Turkiston milliy birligi [1] tashkilotiga rahbarlik qildi.

Mustafo Cho‘qay 1890-yil 25-dekabrda Oqmasjid (hozirgi Qizilo‘rda) shahri yaqinidagi Narshoqi qishlovida aslzoda qipchoq xonadonida tug‘ildi. Uning otasi Cho‘qaybek To‘rg‘ay dodxoh o‘g‘li bo‘lis (volost) boshlig‘i bo‘lib, chorvador qipchoqlarning torayg‘ir urug‘iga [2]

mansub bo‘lgan. Onasi orqali u Xiva xonlari sulolasi bilan bog‘langan edi [3]. Mustaf Cho‘qay boshlang‘ich ma‘lumotni Oqmasjidda olgach, 1902–1910 yillarda Toshkentdagi rus gimnaziyasida o‘qidi. U 1910 –1916 yillarda Peterburg universitetining huquqshunoslik fakultetida tahsil oldi. Rossiya Davlat Dumasining musulmonlar fraksiyasida 1916–1917 yillarda Turkiston ishlari bo‘yicha kotib bo‘lib ishladi. Keyinchalik Muvaqqat hukumatning Bosh vaziri bo‘lgan A.F.Kerenskiy boshchiligidagi komissiya tarkibida 1916-yil yozida Turkistonda bo‘lib, mardikorchilikka qarshi ko‘tarilgan O‘rta Osiyo qo‘zg‘olonining yirik markazlaridan biri Jizzax shahrida ham bo‘lib, Rossiya imperiyasi soldatlarining tinch aholiga nisbatan vahshiyliги va yovuzligi oqibatlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘zbekistonlik R.Rajapova, Q.Rajabov, S.A‘zamxo‘jayev, R.Abdullayev, S.Shodmonova, A.Mingnarov, M.Haydarov kabi tarixchi olimlar [5], adabiyotshunos olimlar va publitsistlardan O.Sharafiddinov [6] N.Karimov va boshqalar mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Mustaf Cho‘qay asarlarini jiddiy o‘rganib, o‘zlarining tarixiy tadqiqotlarida bu asarlardagi boy va ishonchli ma‘lumotlardan keng foydalandilar. Turkiston tarixining sovet hokimiyatining dastlabki yillariga bag‘ishlangan kollektiv monografiyalarda [7] ham bu masala atroflicha yoritildi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”ga Mustaf Cho‘qay haqidagi maqola kiritildi [8]. Toshkentda chop etilgan “O‘zbekiston tarixi” darsligidan Mustaf Cho‘qay faoliyati o‘zining qonuniy o‘rnini topdi [9]. Mustaf Cho‘qayning Turkistondagi faoliyati to‘g‘risida maxsus maqolalar chop etildi [10].

Qozog‘istonda esa Mustaf Cho‘qay faoliyati qardosh qozoq olimlari tomonidan maxsus o‘rganildi hamda tarixchi, filolog, siyosatshunoslar tomonidan ko‘plab kitoblar nashr qilindi. Xususan, Darxon Xidiraliyev [11] va Baxit Sodiqovanning [12] asarlari diqqatga sazovordir. Mustaf Cho‘qayning rafiqasi bo‘lgan Mariya Cho‘qayning [13]u haqdagi xotiralari rus va qozoq tillarida bosilib chiqdi. Bundan tashqari Qozog‘istonda dastlab Mustaf Cho‘qayning ikki jildlik tanlangan asarlari [14]qozoq va rus tillarida 1998–1999 yillarda, so‘ngra uch jildlik asarlari nashr etildi.

Shuningdek, rossiyalik va yaponiyalik tadqiqotchilar o‘zaro hamkorlikda Mustaf Cho‘qayning xotiralarini rus tilida Tokio va Moskvada 2001-yili chop ettirishdi [15]. Mustaf Cho‘qayning asarlari va u haqidagi ilmiy tadqiqotlar turk tilida Turkiyada ham chop etilgan.

Qozog‘iston Respublikasidagi R.B.Sulaymonov nomidagi Sharqshunoslik institutida 2012–2014 yillarda Mustaf Cho‘qayning 12 jildlik to‘liq asarlar to‘plami bosilib chiqdi. Shu narsa xarakterli holki, bu kitoblarga kirgan Mustaf Cho‘qayning asarlari u qaysi tilda yozilgan va birinchi marta chop etilgan bo‘lsa, shu tilda va imloda nashr etildi. Mustaf Cho‘qay 10 ga yaqin tillarni mukammal bilgan hamda o‘z asarlarini turkiy (eski o‘zbek tili), o‘zbek, qozoq, rus, ingliz, nemis, fransuz, turk, polyak, gruzin va boshqa tillarda yozgan hamda nashr ettirgan. Bu kitoblar taniqli qozoq olimi, tarix fanlari doktori, professor Kushim yesmag‘ambetov boshchiligida bir guruh mutaxassislar tomonidan nashrga tayyorlandi hamda qisqa muddat davomida Almatining “Dayk-Press” nashriyotida zamonaviy poligrafiya talablari darajasida bir

xil qalin va chiroyli muqovada 1000 nusxadan chop etildi. Darhaqiqat, Mustafo Cho‘qayning 400 bosma taboqdan ortiq hajmdagi asarlari uning Vatanida bu buyuk shaxs xotirasiga xos va mos tarzda ajoyib shaklda nashr qilindi [16].

Mustafo Cho‘qayning 12 jildlik to‘liq asarlar to‘plamiga yozilgan o‘zbekistonlik tarixchi olim Q.Rajabovning katta taqrizi o‘zbek va rus tillarida Toshkent [17] va Tarozda [18] chop etildi.

2015-yil 15-oktyabrda Almati shahridagi Qozog‘iston Respublikasi Milliy kutubxonasida R.B.Sulaymonov nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan Mustafo Cho‘qay tavalludining 125 yillik yubileyiga bag‘ishlab tashkil qilingan “Mustafo Cho‘qay: siyosatchi va olim” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyada Mustafo Cho‘qayning birinchi marta chop etilgan 12 jildlik to‘liq asarlar to‘plamining taqdimoti bo‘ldi. Xalqaro ilmiy konferensiyada O‘zbekiston (Q.K.Rajabov), Ozarbayjon (S.A.Rustamova-Togidi), Qozog‘iston (K.L.Esmag‘ambetov, M.Q.Qoygeldiyev, S.O.Smag‘ulova, X.M. Abjanov, A.Bakir, A.Aytali, K.Abishev), Turkiya (Eftal Shukru Batmaz, Sefa Hakimo‘g‘li), Fransiya (K.Pujol), Rossiya Federatsiyasi (S.M.Isxakov) davlatlaridan kelgan mutaxassis olimlar qatnashib, Mustafo Cho‘qayning ilmiy va siyosiy faoliyati haqida fikr yuritdilar. Xalqaro konferensiya doirasida Mustafo Cho‘qay asarlari XII tomligi hamda Almatida 2005-yili nashr etilgan Mustafo Cho‘qay bibliografik ko‘rsatkichi [19] va Turkiyada Sefa Hakimo‘g‘li tomonidan turk tilida chop qilingan Mustafo Cho‘qay asarlari 1-jildining ham taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Xalqaro konferensiya materiallari [20] 2015-yilning o‘zida Almatida alohida kitob holatida nashr qilindi.

Tadqiqot tarixiy metodlar tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

NATIJALAR.

1917-yilda Petrogradga bo‘lgan Fevral inqilobidan so‘ng Turkistonga butunlay qaytdi. Aprel oyining boshlarida Orenburgda bo‘lgan Butunqozoqlar birinchi qurultoyida qatnashib, so‘ngra Toshkentga yetib keldi [21].

Mustafo Cho‘qayning siyosiy faoliyatida 1917–1918 yillarni o‘z ichiga olgan Turkiston davri alohida ajralib turadi. Taxminan bir yarim yilcha davom etgan ushbu davrda Mustafo Cho‘qay Turkiston o‘lkasining siyosiy va tarixiy markazlari bo‘lgan Toshkent, Qo‘qon va Oqmasjidda yashab, mintaqadagi siyosiy jarayonlarning markazida turdi. Turkiston mustaqilligi uchun izchil kurashchi Mustafo Cho‘qay 1917-yil 10-aprelda Toshkentga kelgach, siyosiy jarayonlar ichiga sho‘ng‘ib ketdi. 1917-yil bahori va yozida u Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Ahmad Zaki Validiy [22], Ubaydulla Xo‘jayev, Obidjon Mahmudov va boshqalar bilan birgalikda Turkiston Muxtoriyati uchun kurashdi. Mustafo Cho‘qay bu davrda Turkiston o‘lkasi musulmonlarining Milliy markazi bo‘lgan Markaziy Sho‘rosi (Kraymussovet) raisi, qozoq tilida Toshkentda nashr etilayotgan “Birlik tug‘i” gazetasining muharriri, Turkiston Muxtoriyati hukumatining Tashqi ishlar vaziri (1917-yil noyabr – 1918-yil fevral), Bosh vaziri (1917-yil dekabrdan) kabi mas‘ul lavozimlarda faoliyat ko‘rsatdi. Mustafo Cho‘qay Toshkent va Qo‘qonda o‘zbek ma‘rifatparvarlari va jadidlari Ubaydulla Xo‘jayev, Munavvar

Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Obidjon Mahmudov, Nosirxon To‘ra, boshqirdistonlik taraqqiyparvar Ahmad Zaki Validiy va boshqalar bilan yelkama-yelka turib, Turkiston xalqlarining milliy davlatchiligini qayta tiklash hamda ularning milliy manfaatlar uchun kurashdi. Qo‘qonda qarorgohi joylashgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918-yil fevral oyi oxirida bolsheviklar tomonidan tugatilgach, Farg‘onadan mashaqqatli tog‘ yo‘li – dovon orqali Toshkentga kelib, bu yerda 1918-yil 1-maygacha bolsheviklardan yashirindi va ularga qarshi faol kurashni boshladi. Toshkentda Mustafo Cho‘qay rus ayoli Mariya Yakovlevna Gorina bilan 1918-yil 16-aprelda turmush qurdi hamda nikoh musulmonchilik shariati asosida masjidda mulla tomonidan o‘qildi.

Mustafo Cho‘qay 1919–1921 yillarda Tiflis (hozirgi Tbilisi) shahrida yashab, mustaqil Gruziya Respublikasi rahbarlari bilan hamkorlik qildi. U Gruziya va butun Kavkazda ham bolsheviklar tomonidan sovet hokimiyati majburan o‘rnatilgach, 1921-yil yozida muhojirlikka jo‘nab ketishga majbur bo‘ldi hamda Istanbul orqali Parijga keldi va deyarli umrining oxirigacha Fransiyada yashab qoldi.

Mustafo Cho‘qay Parijda yashar ekan, Turkiston milliy birligi tashkilotining yevropa davlatlaridagi vakili sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Turkiston milliy birligining yevropada bo‘lib o‘tgan ikkita kongressida (1924-yil 23-noyabr hamda 1925-yil 1-mayda Berlinda bo‘lgan) jamiyat faoliyati oldiga yangi maqsadlar qo‘yildi. 1927-yil 5-fevralda Germaniyaning Xaydelberg shahrida jamiyatning yevropa davlatlaridagi a‘zolari yig‘ilish o‘tkazib, unda Mustafo Cho‘qay “Sovet Ittifoqi va uning endilikdagi ichki siyosati” nomli ma’ruza bilan qatnashdi. Mustafo Cho‘qayning fikricha, SSSRda Zinovev va Trotskiy tarafdorlaridan ko‘ra Stalin tarafdorlarining hokimiyatga kelishi ancha foydali bo‘ladi. Chunki bu ahvolda ishchilar sinfining hokimiyat tushunchasi biroz bo‘shashadi hamda davlat boshqaruvida qishloqliklar tabaqasining hissasi ko‘payadi [23].

Mustafo Cho‘qayning bu fikrlari Turkiston mustaqilligi uchun kurash tarixida unchalik o‘z tasdig‘ini topmadi. Stalin va uning tarafdorlari hokimiyat tepasiga kelgach, ulkan mamlakatda dahshatli qatag‘onni amalga oshirdilar.

Mustafo Cho‘qayning Parijdan Turkiyaga kelishi munosabati bilan 1927-yil 15-martda Turkiston ozodlik jamiyati Markaziy Qo‘mitasining majlisi o‘tkazildi. Turkiyada yashovchi etnik o‘zbek, siyosiy arbob hamda professor Ahad Andijonning yozishicha, majlis Ahmad Zaki Validiyning Istanbuldagi uyida bo‘lgan. Unda Validiy va Mustafo Cho‘qaydan tashqari Ma’mur Niyoziy, Abdulqodir Sulaymon (Inon), Mustafo Shohquli kabi shaxslar qatnashgan.

Istanbul qurultoyi 1927-yil 15–26-martda Ahmad Zaki Validiy uyida o‘tkaziladi. Istanbul qurultoyining ilk kunida qabul qilingan qarorga binoan jamiyatning nomi Turkiston milliy birligi (TMB) tarzida o‘zgartiriladi. Bu paytda yevropada faoliyat ko‘rsatayotgan barcha muhojir tashkilotlar nomida milliy so‘zi borligi tufayli bu sifat ham jamiyat nomiga qo‘shilgan. Shu bois TMBning Yevropa vakillari ikki nafar kishidan iborat bo‘ladi, degan qarorga kelinadi. Sotsialistlar firqasidan Ahmad Naimga, taraqqiyparvarlar guruhi nomidan esa Mustafo Cho‘qayga yevropadagi vakil vazifasi yuklatildi [24].

22-mart kuni qurultoy yig‘ilishi davom ettiriladi. Unda qabul qilingan qararlarda Turkiston milliy birligi jamiyatining mustaqil va demokratik Turkiston uchun kurashajagi, bu maqsad yo‘lida turli o‘lkalar, tashkilotlar va shaxslar bilan aloqa o‘rnatilishi mumkinligi, ammo Buxoroning sobiq amiri Said Olimxon bilan hech qachon hamkorlik qilinmasligi ta’kidlangan. Qarorda yana uqtirilishicha, radikal millatchi harakatlar va sotsialistik harakatlar mavzusidagi yozuvlar va ularni qo‘llab-quvvatlovchi fikrlar nashr etiladi. Turkistondagi yoshlarning kommunist ekanligi yoki emasligi muhim emas, ularga baho berilganda, yoshlarning rus istilosi va milliy istiqloq harakatlariga qarashi asosiy o‘lchov bo‘lishi kerak. Shuningdek, rus muhojirlari bilan o‘rnatiladigan munosabatlar, albatta, istiqloq tushunchasiga tayanishi lozim. Ularning barchasi imperialistik asosdagi bir rus saltanatini tiklash bo‘lgani uchun TMB birorta muhojir rus tashkiloti bilan aloqa qilmaydi. Faqatgina Rusiya federativ davlatlariga kirish yo kirmaslik masalasi Turkistonga tom ma’noda mustaqillik berish fikrini qabul qilgan guruhlar bilangina muhokama etiladi.

Yevropadagi millatlar tashkiloti bilan aloqa bog‘lashga oid qarorda esa Rossiya hukumati bilan munosabat o‘rnatilishida bir shart muhimligi alohida uqtirilgan. Angliya Turkistonda islomiy davlat qurilishini qo‘llasagina u bilan aloqa qilinadi. Aksil taqdirda inglizlar ham ruslar kabi dushman hisoblanadi. Turkiy va islomiy davlatlar bilan aloqalarda panturkizm va panislomizmni quvvatlovchi siyosat yuritilmaydi.

MUHOKAMA.

TMB tarafidan bosiladigan jurnalda, barchaning tushunishiga oson bo‘lishi va butunlikni saqlash maqsadida turk tili, ya’ni o‘zbek tili qo‘llaniladi va Turkiston matbuoti tilidan foydalaniladi. Mahalliychilikka qarshi kurashiladi. Milliy harakatning xon yoki amirga qarshi bir jarayon emasligi, balki sovet rejimiga qarshi Turkistonning mustaqilligi uchun mujodala ekanligi tushuntirib beriladi. Ruslar tomonidan qaroqchilik va bosqinchilik deya qoralanib targ‘ib-tashviq etilayotgan “bosmachilik”ning ozodlik va milliy mustaqillik harakati ekanligini tushuntirishga g‘ayrat qilinadi. Ruslar asorati ostidagi boshqa millatlar va ularning muhojirotidagi vakillari bilan yaxshi munosabat o‘rnatiladi. Qurultoyning yana bir qarorida aytilishicha, Qozoq sahrosi (tarixiy Dashti Qipchoq) butunisicha Turkiston hududi ichidadir [25].

TMBning xorijdagi barcha faoliyati va nashrlari Turkiston xalqi va asosan yoshlarga qaratilgandir. Mamlakat istilo qilingani bois u yerda aytib va yozib bo‘lmaydigan har qanday fikr TMB tomonidan xalqaro maydonga olib chiqiladi.

Qurultoyning 25-martdagi yig‘inida Turkiston sotsialistlar erk firqasining 9 moddalik va taraqqiyparvar jadidlar firqasining 19 moddalik tuzuklari asosida jamiyatning 9 moddalik yangi tuzugi yasaldi, umumiy bayonnoma qaytadan ko‘rib chiqildi va ma’qullandi [26].

26-mart kuni, ya’ni qurultoyning so‘nggi kunida bo‘lgan yig‘inda markaziy hay’at a’zolari saylanib, vazifalar taqsimlandi. Markaziy Qo‘mitadan chiqishni istagan Ma’mur Niyoziy [27] iste’fosi ma’qullandi. Markaziy Qo‘mita hay’atiga quyidagi uch kishi: Usmon Xo‘ja (Usmon Xo‘jao‘g‘li), Ahmad Zaki Validiy, Mustafo Cho‘qay saylandi. TMBning yevropadagi vakili

Mustafo Cho‘qay Parijda yashashi munosabati bilan uning o‘rniga Abdulqodir Inon Istanbulda ish yuritadigan bo‘ldi. TMB raisligiga Usmon Xo‘ja saylandi. “Prometey” [28] jurnalining vakilligi Ahmad Naimga berildi. Chiqariladigan jurnalning egasi va noshiri qilib Usmon Xo‘ja, yozuv ishlari mudiri etib Ahmad Zaki Validiy tayinlandi [29].

XULOSA

Xullas, Turkiston milliy birligi (TMB) tashkilotining 1927-yildagi Istanbul qurultoyi jamiyatning 1940-1942 yillargacha davom etgan faoliyatini davom ettirishda o‘ziga xos tamal toshi bo‘lib xizmat qildi. Bu davrda TMB bir-biridan farqli sotsialistlar erk firqasi hamda taraqqiyparvarlar jadid firqasi vakillarini bir jamiyatga birlashtirib, o‘zaro hamkorlikda harakat qilishlarini ta‘minladi. Jamiyat faoliyatida mazkur yillarda Mustafo Cho‘qay katta xizmat qildi. Jamiyatning “Yeni Turkistan” (“Yangi Turkiston”) jurnali Usmon Xo‘ja muharrirligida 1927–1932 yillarda Istanbul va Berlinda hamda “Yash Turkistan” (“Yosh Turkiston”) jurnali Mustafo Cho‘qay muharrirligida 1929–1939 yillarda Parij va Berlinda nashr etilgan. Mustafo Cho‘qayning shu munosabat bilan Ahmad Zaki Validiy hamda Usmon Xo‘jaga yozgan hamda ular tomonidan Cho‘qayga yozilgan maktublarda [30] bu haqda so‘z boradi.

Mustafo Cho‘qay muhojirlikda 20 yil yashab, turli xalqaro anjumanlarda ishtirok etdi hamda jahon jamoatchiligini sovet hokimiyati va bolsheviklar zulmi ostida qolgan Turkiston mintaqasi (O‘rta Osiyo va Qozog‘iston sovet respublikalari)dagi haqiqiy ahvol bilan muntazam xabardor qilib turdi. O‘zining publitsistik va tarixiy maqolalari bilan xalqaro jamoatchilikni kommunizm va uning hosilasi bo‘lgan SSSRga qarshi kurashga da‘vat etdi.

Biroq Mustafo Cho‘qayning nomi va asarlari o‘z Vatanida ta‘qiqlandi, hatto u 1941-yil 27-dekabrda vafot etgandan keyin ham “millatchi” va “xoin” sifatida unga la‘nat yog‘dirildi va keyinchalik unutilishga mahkum qilindi.

SSSR parchalanib mustaqil davlatlar tashkil topgach, Mustafo Cho‘qay tug‘ilgan va hayotining muayyan qismini o‘tkazgan Qozog‘iston va O‘zbekistonda [31] uning maqola va kitoblari asta-sekin chop etila boshlandi. O‘zbekiston va Qozog‘istondagi olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida Mustafo Cho‘qay fenomenini ochishga hamda uning ilmiy merosini jiddiy tadqiq etishga kirishdilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Q.Rajabov. Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi istiqloлчаilik harakati va mohiyati (1918-1935). – Toshkent: Fan, 2022. – B.219-221.
2. Мария Чокай. Я пишу Вам из Нождана... (воспоминания, письма, документы). Составление и перевод Б.Садыковой. – Алматы: «Қайнар», 2001. – С. 162.
3. Mustafo Cho‘qay o‘g‘li. Istiqloлча jallodlari (1917 yil xotiralari). So‘z boshi muallifi B.Qosimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B.3.
4. Qahramon Rajabov. Mustafo Cho‘qay // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 157.
5. A‘zamxo‘jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi

tajribasi. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002. – 168 bet; Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar (1917–1935 yillar). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2000. – 32 bet; Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917–1924 yillar). – Toshkent: “Universitet”, 2002; Rajabov Q. Farg‘ona vodiysidagi istiqloлчаilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918 – 1924 yillar). – Toshkent: “Yangi nashr”, 2015. – 240 bet; Агзамходжаев С. История Туркестанской Автономии (Туркистон Мухторияти). – Ташкент: ИПО “Тошкент ислом университети”, 2006. – 268 стр.; Shodmonova S. Nemis va turk tarixshunosligida sovet mustamlakachiligiga qarshi kurash masalalari (1917 – 1924 yillar). – Toshkent: “Abu matbuot-konsalt”, 2008. – 128 bet; Haydarov M. O‘zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi: shakllanishi, bosqichlari va mohiyati (1917 – 1941 yillar). – Toshkent: “Abu matbuot-konsalt”, 2012. – 272 bet; Mingnarov A. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining milliy matbuotda yoritilishi (1917–1918 yillar). – Toshkent: “Istiqloл nuri”, 2013. – 156 bet; Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917 – 1918 годы. – Ташкент: “Navro‘z”, 2014. – 219 стр.; 2-е издание. – Ташкент: “Adabiyot uchqunlari”, 2016. – 284 стр.

6. Sharafiddinov O. Istiqloл fidoyilari. Mustafo Cho‘qay, Cho‘lpon, Otajon Hoshim (Hayotiy lavhalar. Hujjatlar. Rivoyatlar). – Toshkent: “Sharq”, 1993. – 144 bet.

7. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Я.Раджапова. – Ташкент: «Шарк», 2000. – 672 стр.; O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ilmiy muharrir: M.Jo‘rayev. – Toshkent: “Sharq”, 2000. – 688 bet.

8. Qahramon Rajabov. Mustafo Cho‘qay. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 157.

9. Rajabova R.Yo., Karimov R.H., Oqilov Q.O., Ibragimova A.Yu., Alimov I.A., Ishoqov F.B. O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 9-sinf uchun darslik. Ilmiy muharrir: A.Asqarov. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1994. – 400 bet; История Узбекистана (1917 – 1993 гг.). 9 класс. Руководитель авторского коллектива и научный редактор: Р.Я.Раджапова. Под общей редакцией А.А.Аскарова. –Ташкент: «Укитувчи», 1995. – 344 стр.; Alimova D.A., Karimov R.H., Oqilov K.O., Rajabov Q.K., Alimov I.A., Mavrulov A.P. O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: D.A.Alimova. –Toshkent: “Sharq”, 2000. – 416 bet; Алимова Д.А., Каримов Р.Х., Акилов К.А., Раджабов К.К., Алимов И.А., Маврулов А.А. История Узбекистана (1917 – 1991). Учебник 10 класса. Ответственный редактор: Д.А.Алимова. –Ташкент: «Шарк», 2002. – 272 стр. ва бошқалар.

10. Раджабов К. Мустафа Чокай – председатель правительства ТуркистонМухторияти и один из основных идеологов движения за независимость в Туркестане // «История Турана» (Ташкент), 2015. – № 5-6. – С. 11–17.

11. Қыдыралиев Д. Мустафа Шокай. – Астана, 2007. – 287 стр.

12. Садыкова Б. История Туркестанского легиона в документах. – Алматы: «Қайнар», 2002. – 248 стр.; Она же. Мустафа Чокай. – Алматы: «Алаш», 2004. – 238 стр.; Она же. Мустафа Чокай в эмиграции. – Алматы: «Мектеп», 2009. – 348 стр.

13. Мария Чокай. Я пишу Вам из Ножана... (воспоминания, письма, документы). Составление и перевод Б.Садыковой. – Алматы: «Қайнар», 2001. – 208 стр.

14. Мустафа Шоқай. Тандамалы. Шағатай тіл – жаздынымқазіргі қазақ тіл-жазуына аударған және курастырған Айтан Нусіпхан. Бірінші том. – Алматы: «Қайнар», 1988. – 512 бет; Екінші том. – Алматы: «Қайнар», 1999. – 520 бет.

15. Мустафа Чокаев. Отрывки из воспоминаний о 1917 г. Составление, предисловие, примечания С.М.Исхакова. –Токио-Москва, 2001. – 53 стр.

16. Мустафа Шоқай. Шығымаларынын толық жинағы. Он екі томдық [Том I-XII]. Курастырған, алғы сөз бен түсіндіртелерді жазған Кошім Есмағамбетов.

Том I. Жинаққа кіріспе. Куреспен өткен ғутыр. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2012. – 544 бет.

Том II. 1913–1924. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2012. – 640 + VIII бет.

Том III. 1925–1929. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2012. – 668 + IV бет.

Том IV. 1929–1930. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2012. – 532 + II бет.

Том V. 1930–1931. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2013. – 540 + II бет.

Том VI. 1931–1933. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2013. – 523 + IV бет.

Том VII. 1933–1934. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2013. – 571 + II бет.

Том VIII. 1935. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2013. – 560 + II бет.

Том IX. 1935–1937. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2014. – 568 + II бет.

Том X. 1937–1939. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2014. – 618 + II бет.

Том XI. 1939–1941. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2014. – 544 + IV бет.

Том XII.Хаттарэемінде [1920–1941]. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2014. – 474 + II бет.

17. Qarang: Q.Rajabov. Mustaf o Cho‘qay XXI asrda so‘zlam oqda (Buyuk siyosat va davlat arb o b o n i n g 12 j i l d l i k t o‘l i q a s a r l a r t o‘p l a m i n i v a r a q l a b...)// “Turon Fanlar akademiyasi Axborotnomasi. Вестник Академии наук Турон”. – № 3. – Toshkent, 2016. – В. 143-158.

18. К.Раджабов. Мустафо Чокай расказываёт в XXI веке (Пролистывая 12-томный сборник полных произведений великого политического и государственного деятеля...) // “Туркістан жинағы. Туркестанский сборник” (Сборник статей). Том 5. – Тараз, 2017. – С. 47-79.

19. Мустафа Шоқай (1890 – 1941) Библиографиялық корсеткіш. Жоба жетекшісі: К.Л.Есмағамбетов. Идея авторы: Э.Бекір. Курастірғандар: Б.С.Балғымбаева, Д.А.Қыстаубаева, Сефа Хекимоғлы. – Алматы, 2015. – 414 бет.

20. Мустафа Шоқай: саясаткер және Ғалым. Мустафа Шоқай: политик и ученый. Материалы международной научной конференции: «Мустафа Шоқай: политик и ученый». 15 октября 2015 г. – Алматы: «Арыс», 2015. – 288 стр.

21. Садыкова Б. Мустафа Чокай. –Алматы: «Алаш», 2004. – С. 231.

22. Bu haqda qarang: Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on. Xotiralar. Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: M.Abdurahmonov. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2014. – В. 142-144.